Globallashuv jarayonlarida etnik muammolarning ahamiyati

Ahmedova O‘.A
O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi yo‘nalishi
1-kurs magistranti

Jahonda ro‘y berayotgan globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlari ijtimoiy-ma’naviy hayotida milliy xilma-xillik, kam sonli millatlar, diasporalar bilan bog‘liq masalalarni dolzarb ahamiyatga molik masalalar qatorida kun tartibiga qo‘ymoqda. Hozirgi davrga kelib migratsiya jarayonlarining dunyo miqyosida keng tus olishi turli davlatlarda kam sonli bo‘lmish milliy ozchilik guruhlar bilan bog‘liq muammolarni ham o‘rtaga tashlamoqda. Ushbu muammolar dunyoning turli hududlarida u yoki bu darajada namoyon bo‘lib, ma’lum konfessional, etnik, irqiy, hududiy va boshqa xildagi qarama-qarshilik, ziddiyat va to‘qnashuvlarning kelib chiqishiga ham sabab bo‘lmoqda. Bu borada BMTning kam sonli millatlar bo‘yicha Oliy Komissarligi (VKMM) xalqaro miqyosdagi faoliyatini yuqorida qayd etilgan ziddiyatlarni aniqlash va oldini olishga, muammolar yechimiga o‘z e’tiborini qaratib kelmoqda.

Dunyo miqyosida sobiq sovet davridagi respublikalarda mavjud kam sonli xalqlar va millatlarning tarixi, mintaqadagi migratsion jarayonlar hamda amalga oshirilgan deportatsiya siyosati va uning milliy transformatsiyaga bo‘lgan ta’siri, kam sonli millatlar tadqiqining nazariy va ilmiy tahlili bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, o‘z navbatida ichki barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash, geosiyosiy manfaatlarni himoya qilish, respublikada millatlararo munosabatlar borasidagi siyosatni amalga oshirish, millatlararo munosabatlardagi barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlash siyosatini amaliy hayotga tatbiq etish barobarida nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur yo‘nalishda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, turli millat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Zero, “yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir”. Bu borada respublikada yashovchi millatlar o‘rtasida hamjihatlilikni mustahkamlash, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, insonparvarlik qadriyatlarini, bu borada amalga oshirilayotgan madaniy-ma’rifiy ishlarni ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 19 maydagi PF–5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 15 noyabrdagi PF–5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, amaliy hayotga tatbiq etish jarayonida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi //https//president.uz/uz.lists/view/198

Bugungi kunda O'zbekistonda 150 ga yaqin millat va elat Konstitutsiyamizda belgilanganidek, teng huquqli bir oilaning farzandi kabi yashamoqda. ularning ko'pchiligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida ularning milliy madaniyat markazlariga egadirlar. O'zbekistonda yashovchi turklar ham 1992 yilda birinchilar qatorida ularning madaniyat markazlariga egadirlar. O'zbekistonda yashovchi turklar nufusi 21 000 bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib taxminan 50 000 ga yaqinlashdi[2]. (1992 yildan keyin rasmiy statistika o'tkazilmagan) Nima uchun, O'zbekistonda yashovchi turklarni ba'zi bir manbalarda Mesxeti turklari, ba'zilarida Axiska turklari, ba'zilarida bunturklar, ba'zilarida Kavkazliklar deb yozishadi? Sababi nimada? O'zi turklar kimlar? O'zbekiston milliy ensklopediyasiga nazar tashlasak, unda shunday yozilgan: "Turklar – xalq. Turkiyaning asosiy aholisi. Umumiy soni 53,3 mln. кishi (1990 yillar o'rtalari). Turk tilida so'zlashadi. Dindorlari – sunniy musulmonlar. Turklar antropologik jihatdan janubiy yevropoid irqining O'rta dengiz guruhiga mansub. Etnik jihatdan turklar 2 asosiy komponent: 11 – 13-asrlarda saljuqiylar va mo'g'ullar istilosi davrida O'rta Osiyo va Erondan Kichik Osiyoga ko'chib kelgan ko'chmanchi turk chorvador qabilalari (asosan, o'g'uzlar va turkmanlar) va mahalliy (kichik osiyolik) aholidan tarkib topgan. Turklarning bir qismi (o'g'uzlar va bijanaklar) Bolqon yarim oroli orqali Kichik Osiyoga kirib kelgan. Turklar mahalliy aholi (greklar, armanlar, gruzinlar va b) bilan aralashib, ularning bir qismini o'ziga singdirib oldi. Ularning xo'jaligi va madaniyatning juda ko'p belgilarini o'zlashtirdi. Etnogenezida, shuningdek, arab, kurd, janubiy slavyan, rumin, alban va b. elementlar ham qatnashgan. 14 – 16 asrlarda turklar Bolqon yarim oroli va Kiprni egallaganlar. Turk xalqi taxminan 15 asrda tarkib topdi. Turklar tarkibida yarim ko'chmanchi etnografik guruhlar: yuruklar, turkmanlar, taxtajlar, aydallar va boshqalar bor. Yarim ko'chmanchilar o'troqlashib, turklar tarkibiga singib bormoqda. Hozirgi turklarning ko'pchiligi (65%) qishloq xo'jaligida (dehqonchilik va chorvachilik), 35% dan oshiqrog'i sanoatda band[3].

Bas shunday ekan, turk xalqiga bunday laqab yoki tamg'a qayerdan qoldi? Axir 1989 yilgacha bunday tushunchalar deyarli yo'q edi. Qabix sovet boshqaruvi va tuzumi bu yerda ham o'z yuzini ko'rsatdi. Farg'ona voqealari davrida Sobiq Ittifoqda yashovchi turklarni Turkiya Respublikasida yashovchi turklardan ajratish uchun yuqoridagi tamg'alar o'ylab topildi. Axir, Sovet Ittifoqi Mudofaa qo'mitasining 31-iyul 1944 yildagi qarorida (turklarning O'zbekistonga surgun qilinishi) bunaqa tamg'a yo'q[4].

Turklar O'zbekistonga qachon kelib qolishgan? Turklarning dastlabki vakillari bugungi O'zbekiston hududlarida turkiy xalqlarning Enasoy atroflaridan bugungi kunda Turkiya nomi bilan ataluvchi davlat tomon borayotganlarida, hozirgi Namangan viloyati hududiga to'g'ri keluvchi Axsi tuproqlarida joylashib qolishgan. Ikkinchi bir qismi esa Amir Temur davrida, ya'ni 1400 yillarda kelib qolishgan. Uchinchi bir qismi 1873-78 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi paytida asir tushganlarning ko'pchiligi hozirgi Andijon viloyatining Buloqboshi, Xo'jaobod, Marhamat, Shahrixon tumanlari hududiga keltirilgan[5].

---

[2] Иноятова Д.М. Вклад женщин узбекистана в образовательной сфере (на примере турецкой диаспоры). – Алматы //AHISKA. 2023, 6 января, №1 (921).

[3] O'zbekiston milliy ensklopediyasi. Toshkent . 2007, 764-bet.

[4] Shabanov J. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o'rni maqola. 2-bet

[5] Shabanov J. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o'rni maqola. 2-bet

O’zbekistonga turk millatiga mansub aholining katta qismi 1944 yilda ko’chirib keltirilgan. Sovet ittifoqi Mudofa qo’mitasining 31 iyul 1944 yildagi 5279-sonli qaroriga asosan surgun qilingan bir qancha millatlar ichida turklar ham O’zbekistonga kelib qolishgan. Usha qarorga asosan, Qozog’iston respublikasiga 40 000, O’zbekistonga 30 000, Qirg’izistonga 16 000 turk millati vakillari olib kelingan. Bu qarorga ko’ra, surgun qilinganlarning sanog’i 98 000 bo’lib, ulardan 86 000 turklar, qolganlari tarakamalar, xemshinlar va boshqalarni tashkil qilishgan[6].

Xalqlarni deportatsiya qilish siyosati 1930-1950 yillardagi sobiq Sovet ittifoqi syosatining tarkibiy qismiga aylangan edi. Ayniqsa ikkinchi jahon urushi davrida Sovet davlati o’z tarkibidagi xalqlarga qatag’onlik siyosatini yanada kuchaytidi. Chegara rayonlarda yashovchi xalqlar- finlar, polyaklar, kurdlar,keyinchalik mesxeti turklar, xamshallar siyosiy manfaatlarni ko’zlab, ya’ni “chegara xavfsizligini “ ta’minlash maqsadida mamlakatning boshqa hududlariga zo’rlik bilan deportatsiya qilindi.“Chegara xavfsizligini ta’minlash” maqsadida bu yerdan xalqlarni deportatsiya qilish quyidagicha “asoslandi”:

-chegara rayonlarda yashovchi kam sonli xalqlarning dushman tomoniga o’tib ketishi ehtimoli

-ushbu deportatsiyaga duchor bo’lgan xalqlar orasida ayrim kishilarning fashistlarga ko’mak berganligi oqibatida butun xalq aybdor, xiyonatkor hisoblanadi.

Aslini olganda, Sovet davlatida amalga oshirilgan butun deportatsiya siyosati xalqlar orasidagi norozilik harakatlarini bostirish hamda xalqlarni jazolash sifatida qo’llangan edi. Bu bilan hukumat oddiy aholiga o’zining kimligini ko’rsatib qo’ymoqchi bo’ldi. Keying davrlarga kelib SSSR parchalanib ketgandan keyin mesxeti turklarni deportatsiya qilish Qoradengiz mintaqasini turklardan (Qrim tatarlari bilan birgalikda) tozalash siyosatining bir qismi ekanligi ma’lum bo’ldi.

I.V.Stalin rejimi davrida deportatsiya siyosatining jabrini tortgan zo’ravonlikka duchor etilgan xalqlardan biri mesxeti turk xalqi edi. Ular asrlar davomida Gruziyaning tarixiy Mesxet-Javaxeti viloyatida, hozirgi Gruziyaning janubi-g’arbiy hududida yashab kelgan[7].

Deportatsiya haqidagi qaror Sovet Ittifoqi Mudofa qo’mitasining 1944 yil 31 iyuldagi 5279-sonli qarori (turklarni O’zbekiston hududiga surgun qilinishi) qabul qilinadi. Bu qaror 1944 yilning yozida qabul qilingan bo’lsada, 1944 yilning 14-noyabrdan 15 noyabirga o’tar kechasi amalga oshirilgan. Yarim tunda hammani uyqudan uyg’otib, tayyorlanishga faqat 2 soatgina vaqt berilgan. Gruziyaning Mesxetiya hududidagi Axiska, Adigiyon, Aspinza, Axalkalak, va Bagdanovka tumanlaridan jami 198 qishloq aholisi “studabekker” mashinalariga mingizilib, markazga olib kelinadi va hayvonlar uchun mo’ljallangan har bir vagonga 15-16 oila joylashtirilib,surgun qilinadi[8].

Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan, lekin g’alabaga sanoqli oylar qolgan bir davrda, turk erkaklaridan, 8 nafar “ sovet ittifoqi qahramoni “ (jumladan Bekir Dursunovich Mustafayev urushdan qaytgach Samarqand viloyati Samarqand tumani Qaynama qishlog’ida yasha, 1978

[6] Shabanov J. O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o’rni maqola. 2-bet

[7] Bozorov O.O. “XX asrning 80-yillarida O’zbekistondagi millatlararo munosabatlar tarixi(Farg’ona fojeasi misolida). Tarix fan.b. fals.dok….diss. - Toshkent. 2019. - 46-bet

[8] Shabanov J. “O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o’rni. Maqola. 3-bet.

yilda vafot etgan. Qaynama qishlog'idagi maktabga uning nomi berilgan),3 nafar "Slava" (shon-shuhrat) ordenining uchala darajasi sohiblari , 24 nafar ofitser, 271 nafar serjant va 40000 ga yaqin mard o'g'lonlar jang-u-jadalda Vatan uchun qon kechayotgan bir paytda, ularning oilalari, qariyalar, ayollar va yoshlarni, urushdan nogiron bo'lib qaytganlarni vagonlarda o'z vatanlaridan badarg'a qilishadi. Surgun qilingan 88 881 nafar xalq orasida 17 218 erkak, 25 328 nafar ayol, 46 335 voyaga yetmagan bolalar bo'lib, shulardan 36781 nafari mehnatga layoqatli bo'lgan.

O'zbekistonga surgun qilingan 30 000 aholi viloyatlarga quyidagicha taqsimlangan. Andijon viloyatiga – 1769 oila, Buxoro viloyatiga – 2434 oila, Qashqadaryo viloyatiga – 364 oila, Namangan viloyatiga – 1853 oila, Samarqand viloyatiga – 4007 oila, Toshkent viloyatiga – 5547 oila, Farg'ona viloyatiga – 2682 oila, Qoraqalpog'istonga – 1 oila joylashtirilgan. Surgun qilinganlarning 13000 mingga yaqini yo'llarda va eshelonlarda halok bo'lishgan. Ularning qabrlari yo'q, chunki o'lganlarrni vagonlardan to'g'ri kelgan joyga uloqtirishgan[9].

Aslida turklarning O'zbekistonga surgun qilinishi rejalari 1943 yillarning oxirlarida boshlangan. Bu haqida marhum, o'z davrida O'zbekiston kommunistik partiyasining birinchi sekretari bo'lgan N.A.Muhiddinov o'zining "Kremelda o'tkazgan yillarim" (Toshkent.1994 yil) kitobida shunday eslaydi. 1943 yil oxirlarida urushdan chaqirtirilib, Markazning o'ta muhim topshirig'I bilan Gruziyaga yuboriladi va u yerda yashovchi, turklar, xemshinlar, tarakamalar va boshqalarning vazyati o'rganilib chiqadi. Ya'ni turk xalqining surgunga tayyorgarligi usha davrdayoq boshlanadi. Markazga paxta kerak bo'lgan. Buni o'sha davrdagi O;zbekiston raxbarlari juda yaxshi bilishgan. Dini va madaniyati o'ziga yaqin bo'lgan millat vakillarini O'zbekistonga qabul qilishga rozi bo'lishgan.(aks holda, balki ularning hammasi, mashhur virach, journalist, surgunda O'zbekistonga kelgan Binali (Begali)Aliyevning xotirlashicha, dengizga cho'ktirib yuborilarmidi. Surgunlar ortilgan vagonlar Ozarbayjoning Balajir stansiyasida 3 kun to'xtatilgan. Qallob Stalin va Beriyalarning tushunchalari bo'yicha vagonlarni dengizga uloqtirmoqchi bo'lishgan. Lekin, o'sha davrdagi O'zbekiston raxbari Usmon Yusupovning taklifiga ko'ra vagonlar O'zbekistonga qarab yo'l olgan)[10].

Mesxeti turklarning O'zbekistonga, xususan, Farg'ona viloyatining Quvasoy shahrida yashovchi Mirzajonov To'raxo'ja (2008 yilda Quvasoy shahar oqsoqollar kengashing raisi) shunday eslaydi: "mesxeti turklar bizning shahrimizga 1945 yilda kelgan edilar. Biz, shahar aholisi, o'zimizning urush davridagi og'ir sharoitimizga qaramasdan, bu qardosh xalqni samimiy kutib oldik. Shahrimizdagi xonadonlarga mesxeti turklarni 4-5 oilagacha qilib joylashtirdi. Bizning uyga ham mesxeti turklarning 3-4 xo'jaligi joylashtirildi[11].

Moskvada faoliyat yurituvchi "Vatan" mesxeti turklari xalqaro jamiyati prezidenti Suleymon Barbakadzening "Nezavismaya gazetasi"ga aytishicha, bir kecha-kunduz davomida Gruziyaning 224 ta qishlog'idan 92 mingdan ziyod kishini ko'chirganlar. Mesxeti turklarni deportatsiya qilish 1945 yil yanvar oyida yakunlandi. Ko'chirishning dastlabki oylaridayoq yo'l qiyinchiliklari oqibatida 15492 kishi halok bo'ldi. Ko'p vaqt davomida mesxeti turk xalqining miqdori noaniqligicha qoldi., chunki ko'pchilik mesxeti turk millatiga mansub kishilar davlat statistika hujjatlarida ozarbayjon va gruzin millatiga mansub deb rasmiylashtirilgan edi.

Shunday qilib, 1944 yilda O'rta Osiyo davlatlari hisoblangan Qozog'iston, Qirg'iziston,

[9] Shabanov J. "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o'rni. maqola 3-bet.

[10] Bozorov O. "Sovet davlatining deportatsiya siyosati va uning oqibatlari (mesxeti turk xalqi misolida)". O'tmishga nazar; 2022. 5-jild. 1-son.

[11] Bozorov O.O. "XX asrning 80-yillarida O'zbekistondagi millatlararo munosabatlar tarixi(Farg'ona fojeasi misolida). tarix fan.b.fals.dok….diss. - Toshkent. 2019. - 49-bet.

O’zbekiston hududlariga deportatsiya qilingan mesxeti turklarning eng ko’p qismi O’zbekistonda maskan topdi. Mesxeti turklarning katta guruhlaridan biri Farg’ona viloyatiga joylashtirilgan. Ularning katta qismi viloyatning Quvasoy shahrida, shuningdek, Farg’ona, Marg’ilon, Qo’qon shaharlarida, Toshloq, Komsomol shaharchasida, Qirguli, Oxunboboyev mavzesining bir qancha qishloqlarida(sobiq Marg’ilon), Quva, Rishton, Farg’ona rayonlarida yashar edilar. Bir qancha turk oilalari Qo’qondan g’arbda joylashgan Kirov rayonidagi Gorkiy shaharchasi aholisining orasida ham bo’lgan[12].

Mesxeti turk aholisi O’zbekistonning birgina Farg’ona viloyatidagina emas, balki boshqa viloyatlariga ham joylashtirilgan bo’lib, quyida keltirilgan jadvalda ularning viloyatlar kesimida joylashuvi ko’rsatilgan:

1989 yil 6 iyun holatiga ko’ra O’zbekistonda mesxeti turklarining ma’muriy joylashuvi quyidagicha edi:[13]

Umumiy soni	108127 kishi
Fag’ona viloyati	14534(aslida, keyingi voqealar ularning 16400 kishi bo’lganligini ko’rsatdi)
Andijon viloyati	4669
Namangan viloyati	3626
Samarqand viloyati	22338
Sirdaryo viloyati	19236
Toshkent viloyati	48109
Buxoro viloyati	2057
Qashqadaryo viloyati	1647
Surxandaryo viloyati	-
Qoraqalpog’iston ASSR	1
Xorazm viloyati	10
Toshkent shahri	-

Respublikamizga joylashtirilganidan so’ng Toshkent va Sirdaryo viloyatida yashovchi ko’pchilik turklar, asosan, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida band bo’lgan bo’lsalar Samarqand viloyati va Farg’ona vodiysida yashovchi ushbu xalq vakillari sanoat va qurilish ishlarida faoliyat olib borganlar. Mesxeti turk xalqi orasidan O’zbekiston iqtisodiyoti va maorifi sohasiga katta hissa qo’shgan Saodat Gulahmedova, Hamroli Hasanov kabi Mehnat qahramonlari, respublikada xizmat ko’rsatgan o’qituvchi Xolis Ahmedov kabi fidoiy kishilar yetishib chiqdi[14].

[12] Bozorov O.O. “XXasrning 80-yillarida Ozbekistondagi millatlararo munosabatlar tarixi (Farg’ona fojeasi misolida). Tarix fan.b.fals.dok….diss. - Toshkent.2019. - 48-bet.

[13] Bozorov O.O. “XXasrning 80-yillarida Ozbekistondagi millatlararo munosabatlar tarixi (Farg’ona fojeasi misolida). Tarix fan.b.fals.dok….diss. - Toshkent.2019. - 50-bet.

[14] Shabanov J. “O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o’rni. Maqola 5-bet.

O’zbekistonga surgun qilingan turklar 1945 yildan 1956 yilgacha har qanday inson huquqlaridan mahrum qilingan edi. Joylashtirilgan hududlaridan bir qadam ham chiqib ketishi mumkin bo’lmagan. Har kuni ularni sanoqdan o’tqazib turishgan. Ularda passport, meetrka degan hujjatlari ham bo’lmagan. Faqatgina, 1956 yildan keyingina ular O’zbekiston va Ittifoq hududi bo’yicha borib kelish va o’zlariga kerakli hujjatlarni olish huquqiga ega bo’lishgan. Ana shu yillarda Axiska turklari birlashishga, surgun qilingan ona vatanlariga qaytishga harakat qilishgan. Chunki surgun qarorida 25 yildan keyin ular o’z Vataniga qaytish huquqiga ega deb aytib o’tilgan. Shu yillarda Anvar Odashboyev boshchiligida tashkilot tuzilib, turklarni vataniga qaytarishga harakat qilishadi. Natijada, 1956-58 yillarda minglab turklar O’zbekiston, Qozog’iston, Qirg’izistondan Ozarbayjonga borib joylashadi. Keyinchalik, bu tashkilot “Vatan” nomini oladi, raxbar etib Yusuf Sarvar saylanadi. Bu tashkilot vakillari Sovet ittifoqi rahbarlari bilan uchrashib, bir necha bor Moskvada bir necha bor muzokaralar olib boriladi. Bu muzokaralarning asosiy maqsadi turklarni ona vataniga qaytarish bo’ladi. Sovet davlatining parchalanishi natijasida surgun qilingan 25 ga yaqin millatdan faqatgina turklar maqsadlariga erisha olmadilar. Bu azob-uqubatlar, haqoratlanishlar va ezilishlar yetmaganidek, “qizil iblislar”, Sho’ro hukumati va mustabid tuzum bu xalqning boshiga 1989 yilning may-iyun oylariga kelib yana bir kulfatni keltirdi. Bu Farg’ona voqealari… Bu haqida yozilmagan so’z, gapirilmagan gap qolmadi. Hamma aybni dini, dili,tili bir bo’lgan, qon-qarindosh o’zbek va turk xalqiga yuklamoqchi bo’ldilar. Mana oradan 30 yildan ko’p vaqt o’tdi. Vaqt va tarix o’z qarorini berdi. Haqiqiy aybdorlar markazda, Kremilda ekanligi aniq bo’ldi. Men o’zim qatnashgan va guvohi bo’lgan bir narsani aytmoqchiman. 1989 yil 24 avgustda O’zbekistonga yangi rahbar bo’lib kelgan Islom Karimov bir majlis o’tkazdilar. Majlisda o’sha davrdagi O’zbekistondagi barchs oliy o’quv yurtlari rektorlari, tarbiyaviy ishlar bo’yicha prorektorlari va partiya qo’mita qatnashishgan edi. Ular qatorida men ham bor edim. Karimovning o’shanda aytgan so’zlari mana 30 yildirki esimdan chiqqani yo’q va hech qachon chiqmasa ham kerak. “Xurmatli rahbarlar, bizdagi ma’lumotlarga ko’ra hozir oliy o’quv yurtlarida 700 ga yaqin mesxeti turklari ta’lim olmoqda. Erta-indin o’qish boshlanadi. Agar ertaga birontasining burni qonasa, aybdorni shaxsan o’zim jazolayman. “Ikkinchi bir misol 1990-yil fevral Parkent va Bo’ka voqealari. Xalqlar do’stligi saroyida Islom Karimovning qilgan nutqlaridan bir parcha: “Axir turklar ham odamku! Nima men ularni oyga olib chiqib qo’yamanmi? Uchinchi misol. Farg’ona voqealaridan keyin O’zbekistondan Ozarbayjon, Qozog’iston, Qirg’iziston, Rossiya va Ukrainagaketib qolgan turklarni qaytarish uchun qaytarish uchun Islom Karimov boshchiligida komissiya tuziladi va usha respublikalarga O’zbekiston rahbariyati tomonidan tayinlangan maxsus guruhlar jo’natiladi. Guruhlar ularni qaytarish uchun targ’ibot- tashviqot ishlarini olib boradi. Natijada oz bo’lsada Farg’ona, Sirdaryo, Toshkent viloyatlariga hamda Toshkent shahriga turklar qaytib turklar qaytib keladi. Yuqoridagi fikrlar O’zbekiston davlatining bor imkoniyatlarini ishga solganligini ko’rsatib turibdi. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, turklar surgun qilingan 3 ta respublikadan, boshqa respublikalarni kamsitmagan holda O’zbekistonda turklarga bo’lgan munosabat har tomonlama yaxshi bo’lgan. Turklarning mehnatiga munosib baho berilgan va taqdirlangan. Ular orasidan kolxoz, sovxozlar, hatto undan yuqori lavozimlarga rahbarlar tayinlana boshlangan. Bular orasida bir necha yillar Toshkent viloyati Chinoz tumani raykom partiyasining birinchi sekretari bo’lib ishlagan Kibar Mamedov, Yangiyo’l tumani raispolkom raisi bo’lib ishlagan Ismoil Shubadze, Sirdaryo viloyati oblast partiya komitetining kotibi Iso Mahmudovich Aslanovlarni sanab o’tishimiz mumkin. Turk xalqi farzandlarining o’qishlariga katta e’tibor bera boshladi[15].

[15] Shabanov J. “O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o’rni.maqola. 6-bet

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Иноятова Д.М. Вклад женщин узбекистана в образовательной сфере (на примере турецкой диаспоры). – Алматы //AHISKA. 2023, 6 января, №1 (921).

2.Shabanov J. “O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida turk diasporasining o’rni. ???

3.O’zbekiston milliy ensklopediyasi. - Toshkent . 2007.

4.Bozorob.O.O. “Sovet davlatining deportatsiya siyosati va uning oqibatlari(mesxeti turk xalqi misolida)”. O’tmishga nazar.; 2022. 5-jild 1-son. 47-51-betlar

5.Bozorov. O.O. “XX asrning 80-yillarida O’zbekistondagi millatlararo munosabatlar tarixi(Farg’ona fojeasi misolida). Tarix fan.b.fals.dok.…diss. - Toshkent: 2019. - 167 b.

WORDLY
KNOWLEDGE